

IS'HOQXON TO'RA IBRAT - JADIDCHILIK HARAKATINING YIRIK NAMOYONDASI

Sarvinoz G'ULOMOVA,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878424>

Annotasiya: Ushbu maqolada Is'hoqxon Ibratning hayoti va ijodi yo'li, tilshunoslikka va lug'atshunoslikka qo'shgan buyuk hissasi va qimmatbaho asarlari tahlili va u yaratgan yangi usul maktablari hamda bosmaxonalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, lug'atshunoslik, tarjimachilik, tarix, maorif, ta'lim, maktab, yangilik, tilshunoslik

Jadidchilik harakatining buyuk darg'alaridan biri Is'hoqxon Ibrat sanaladi. Jadidchimiz pedagogika, tilshunoslik, tarix, tarjimachilik va yana bir qancha sohalarning yetuk bilimdoni hamda ushbu sohalarning yangilik yaratuvchisi hisoblanadi. Ibratning lug'atshunoslik sohasida olib borgan ilmiy ishlari haligacha tahsinga sazovor va ushbu soha uchun zamin bo'la olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Is'hoqxon Ibrat - haqiqiy ismi Is'hoqxon To'ra Junaydullo xo'ja o'g'li - jadidchi, yozuvchi, tarjimon-poliglot, tarixshunos.

Is'hoqxon Ibrat 1862 yil Qo'qon xonligidagi Namangandan uzoq bo'lmagan To'raqo'rg'on qishlog'ida tug'ilgan. Boshlang'ich ma'lumotni mahalliy madrasada hamda onasidan olgan. Keyinroq, Qo'qonga ko'chib o'tib, katta madrasaga o'qishga kiradi. 1886 yil Qo'qon madrasasida o'qishni tamomlab, ona qishlog'iga qaytadi. O'z qishlog'ida Ibrat aholi orasida ma'naviy faoliyatini boshlaydi. Yil oxirida u boshqa maktablardan o'qitish tizimi bilan sezilarli darajada farq qiluvchi maktab ochadi. Keyinchalik maktab barchaning e'tiboriga tushib, boshqa mahalliy maktablar ham Is'hoqxon Ibratning yangi uslubdagi o'qitish tizimiga o'tadi.¹

Ibratning bunday buyuk ishlarni amalga oshirishda onasining o'rni beqiyos hisoblanadi. Aytishadiku, har bir buyuk shaxsning ortida buyuk onalar yotadi. Is'hoqxon To'ra Ibratning onasi xuddi shu iboraning ayni in'ikosi hisoblanadi. Ibratning lug'atchilik borasida yaratgan buyuk asarining boshida uning onasi turgan. Is'hoqxonda tillarga, tarjimachilikka bo'lgan bunday g'ayrat va shijoatni uning onasi bergan. Maktab va madrasalardan tashqari bosmaxona ham tashkil etgan.

Uning lug'atchilikka bag'ishlangan buyuk asariga to'xtaladigan bo'lsak, "Lug'ati sitta al-sina" nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu lug'at oltita tilda bitilgan;

¹ arboblar.uz

forscha, ruscha, arabcha, hindcha, turkcha, satrcha(o'zbekcha). Krilchani bilmaydigan o'zbeklar uchun ushbu lug'atni ruschadan arabchaga o'girib qulaylik kiritgan. Avvalo, bu kitobni nashr etilishiga ruxsat berishmagan. Lekin Ibrat o'sha payt bosmaxonada faoliyat yuritgan Ostrumovga ikki marta maktub yo'llaydi va ancha yillardan so'ng buyuk ijod namunasi 1901-yil Toshkentdagi "Lenin" nashriyotida nashr etiladi va shov-shuvlarga sababchi bo'ladi. Kitobda mingdan ortiq so'zlar va ellik uch sahifa hamda ikki qismdan iborat tuzilgan. Asarning ikkinchi qismi o'ttiz yetti bobdan iborat bo'lib, tilshunoslikka oid juda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Misol uchun fe'llarning boshqa shakllari, otlar, olmoshlar haqida ma'lumotlar uchraydi.

Tilshunoslikning kam o'rganilgan shuningdek, murakkab bo'lgan sohasidan Ishoqxon To'ra "Jome ul- xutut", "Yozuvlar majmuasi" asarini yozib qoldirdi. Ushbu asarda yozuvning eng qadimgi turi bu piktografik yozuv hisoblagan hamda tonshu yozuvdan yigirmanchi asrgacha bo'lgan yozuvlar tarixini o'rgangan, ilmiy ishlar olib borgan. "Jome ul- hutut" asarini o'zing "Matbaayi Is'hoqiya" bosmaxonasida nashr ettirdi. Yozuvchi, aynan, shu asarini quyidagicha ta'riflaydi.

Asardurki, olamg'a olg'ay nishon.

Kishi beasardurki, ketar benishon.

Bu baytdan shuni bilishimiz mumkinki, bu asar olamg'a nishon bo'ladigan darajada mukammal yaratilgan. Yana aytmoqchiki, kishi o'zidan nishon qilib asar yozib qoldirmasa nomsiz ketadi. Ajoyib jumalarga bir butun olam ma'noni baxshida etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrat, Is'hoqxon To'ra. Lug'ati sitta alsina. – Toshkent: "Fan", 1908.
2. Ibrat, Is'hoqxon To'ra. Tarixi Farg'ona. – Toshkent: "Sharq", 1991.
3. Abduaziz, M. Is'hoqxon Ibrat: Ma'rifatparvar alloma. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
4. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Qosimov, B. Jadidlar: Tanlangan asarlar. 1–2-jildlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
6. G'aniyev, Sh. Is'hoqxon To'ra Ibratning pedagogik qarashlari. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, 2004.
7. Muhammadiyev, A. Jadidlar harakati va uning tarixi. – Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2001.
8. Sodiqov, A. Ma'rifatparvarlik va jadidchilik. – Samarqand: "SamDU nashriyoti", 2010.
9. Axmedov, A. Jadidchilik tarixidan sahifalar. – Toshkent: "Fan", 1994.
10. Nurmonov, A. O'zbek adabiyoti tarixi: XX asr boshlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2006.
11. O'RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. "Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an'anasi" mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiali. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar.
https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.

“TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

12. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta'siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
13. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
14. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to'g'risidagi ma'lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
15. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.

